
MAHALLALARDA IFTORLIK DASTURXONLARI YOZILYAPTI

Prezidentimiz tashabbusi bilan muborak Ramazon oyi kunlarida yurtimiz mahallalarida kam ta'minlangan, ijtimoiy ko'makka muhtoj, ehtiyojmand fuqarolar hamda nuroniylar uchun iftorlik dasturxonlari yozilmoqda. Bu kabi xayr-saxovat tadbirlari Toshloq tumani mahallalarida ham bo'lib o'tmoqda. Xususan, tumandagi "Furqat" va "Suvboshi" mahalla fuqarolar yig'inlari faollari hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj xonadonlar vakillari uchun iftorlik dasturxon yozildi.

Dasturxon atrofida jamlagan xayrli tadbir qatnashchilari yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligini tilab duolar qildilar.

2023-04-13 08:26:02